

TALABALARNI PEDAGOGIK MUSTAQILLIGINI RIVOJLANTIRISHGA TAYYORLASH

Abdullayeva Havoxon

Andijon davlat universiteti dotsenti
abdullayevakahoxon@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18944663>

Annotatsiya. Maqola talabalarning pedagogik mustaqilligini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar va metodlarning ahamiyatini ta’kidlaydi. Axborotlashtirish jarayonlarining intensivlashtirilishi, talabalarga rang-barang rasmlar va grafikalar orqali o’quv materiallarini taqdim etish, motivatsiyani oshirish va pedagogik mustaqillikni rivojlantirishga yordam beradi. Ta’lim sohasidagi islohotlar, malakali kadrlar va mutaxassislar talabini oshirgan holda, talabalarni darslarga qiziqishi va motivatsiyasini kuchaytirishga yordam beradi. Muammoli vaziyatlar yaratish, ijodkorlik va muhokama orqali talabalarning faolligi va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish zarurligi ta’kidlanadi. Pedagogik mustaqillik, o’rganish jarayonida mustaqil faoliyat va intilishlarni o’z ichiga oladi, shuningdek, pedagogik metodlar va yondashuvlar orqali rivojlantirilishi kerakligi ko’rsatiladi.

Kalit so’zlar: pedagogik mustaqillik, axborotlashtirish jarayonlari, talabalar motivatsiyasi, zamonaviy yondashuvlar, o’quv-metodik majmualar, muammoli vaziyatlar, ijodkorlik, pedagogik metodlar, mustaqil fikrlash, ta’lim islohotlari.

Аннотация. В статье подчеркивается важность современных подходов и методов в развитии познавательной самостоятельности учащихся. Интенсификация процессов информатизации, предоставление учащимся учебного материала с помощью красочных рисунков и графики, способствует повышению мотивации и развитию познавательной самостоятельности. Реформа образования, увеличивая спрос на квалифицированный персонал и специалистов, способствует повышению интереса и мотивации учащихся к занятиям. Подчеркивается необходимость развития активности учащихся и навыков самостоятельного мышления посредством создания проблемных ситуаций, творчества и обсуждения. Показано, что познавательная самостоятельность включает в себя самостоятельную деятельность и стремления в процессе обучения, а также должна развиваться с помощью педагогических методов и подходов.

Ключевые слова: познавательная самостоятельность, процессы информатизации, мотивация учащихся, современные подходы, учебно-методические комплексы, проблемные ситуации, творчество, педагогические методы, самостоятельное мышление, реформы образования.

Annotation. The article highlights the importance of modern approaches and techniques in the development of cognitive independence of students. Intensification of informatization processes, providing students with educational materials through colorful pictures and graphics, helps to increase motivation and develop cognitive independence. Educational reforms, while increasing the demand for qualified personnel and professionals, help to strengthen students' interest and motivation for classes. Through the creation of problem situations, creativity and discussion, the need to develop students' activity and independent thinking skills is emphasized. Cognitive independence, which involves independent activities and aspirations in the learning process, is also indicated to be developed through pedagogical techniques and approaches.

Keywords: cognitive independence, informatization processes, student motivation, modern approaches, educational and methodological complexes, problem situations, creativity, pedagogical methods, independent thinking, educational reform.

KIRISH. Ma’lumki, jamiyatda axborotlashtirish jarayonlari intensivlashtirish orqali talabalarning pedagogik mustaqilligini rivojlantirishga qaratilgan o’quv-metodik komplekslarni talabalar psixologiyasini hisobga olgan holda Android, IOS platformalarida mustaqil o’rganish, takrorlash, o’z iqtidoriga mos keladigan turli murakkabliklardagi topshiriqlar bilan boyitishni talab etadi. O’quv materiallarini matn ko’rinishida emas, balki ma’lumotlarni rang-barang rasmlar, grafikalar, sodda matnlar orqali berilgan. Bu orqali talabalarning dars materialiga nisbatan motivatsiyasini oshiradi.

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

Talabalarining pedagogik mustaqilligini rivojlantirishda darslarni zamonaviy yondashuvlar, vositalar hamda metodlarni qo‘llash, yangi ma‘lumotni o‘zlashtirish jarayonida eshitib, ko‘rib, hayotga qo‘llab o‘rganish muhim ahamiyatga ega. So‘nggi vaqtlarda ta‘lim sohasidagi islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislariga bo‘lgan talabni yanada yuksaltirmoqda. Bu esa talabalarining darslarga qiziqishi hamda motivatsiyasini oshirish va talabalarining har tomonlama ta‘lim-tarbiyaga e‘tiborini kuchaytirishni talab etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Bir qator olimlar pedagogik faoliyatni ta‘lim oluvchilarning “o‘rganishga bo‘lgan tabiiy moyilligi” deb hisoblab, o‘rganishga intilish insonga xosligi ta‘kidlashadi. Bu talabaning ilk kunlaridanoq namoyon bo‘ladigan jarayondir. Ba‘zi pedagog olimlar pedagogik faoliyatni shaxsiy xususiyat sifatida tushunishadi. G.I.Shukina⁴ mazkur atamani “shaxsning bilimga bo‘lgan intilishini o‘z ichiga olgan, bilish jarayoniga intellektual munosabatni ifodalovchi shaxsiy xususiyat” deb ta‘riflaydi. Shaxsning “pedagogik faoliyat”ga intilishi barqaror namoyon bo‘lishi shaxsning ijobiy xususiyati sifatida shaklida tushuniladi. Pedagogik mustaqillik bilishga bo‘lgan ehtiyojlar va manfaatlar faoliyatning mazmunli xususiyatni belgilab beradi.⁵

Talabalarda pedagogik mustaqillik bir fan doirasida rivojlanmaydi, balki fanlararo aloqadorlikni taqozo etadi. V.N.Fedorova ilmiy-tadqiqotlarida fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish shartining kiritilishi “talabalar bilimlarining ilmiyligi, tizimlilikini, bilish qobiliyatlari va qiziqishlarining rivojlanishini ta‘minlaydi, ya‘ni boshqa didaktik tamoyillarni amalga oshishiga ko‘maklashadi”⁶, deb ta‘kidlanadi.

Talabalarining pedagogik mustaqilligini rivojlantirishda o‘quv-metodik majmualarning ahamiyati katta. Umumta‘lim maktablari uchun o‘quv-metodik majmualar ishlab chiqishning maqsadi ta‘lim muassasalari uchun “zamonaviy fan va texnika rivojini hisobga olgan holda kompetentsiyaviy yondashuv talablari asosida o‘quv materiallari mazmuni va sifatini takomillashtirish hamda ushbu sohadagi ilg‘or xorijiy tajribani samarali tatbiq etishdan iborat”.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Talabalar pedagogik mustaqilligini rivojlantirish muammosining dolzarbligi shundaki, ularning tashqi dunyo bilan o‘zaro aloqasi faqat ularning faoliyati va faolligi tufayli amalga oshadi, bu esa o‘z navbatida mustaqillik va tashabbusni shakllantirishga yordam beradi. Pedagogik mustaqillik talabaning faolligini, uning bilimga bo‘lgan ishtiyoqini, noma‘lumdan ma‘lumni aniqlashga bo‘lgan harakatini ta‘minlaydi. Ilmiy adabiyotlarda “pedagogik mustaqillik” tushunchasi turli talqinlarda ifoda etiladi. Pedagogiklik talabaning mustaqil faoliyatga intilishini anglatadi, ijtimoiy tajribani, insoniyat tomonidan to‘plangan faoliyat usullarini o‘zlashtirishni o‘z ichiga oladi.

Talabalarda pedagogik mustaqillikni rivojlantirishda muammoli vaziyatlarni yaratish, pedagogik qiziqishlarni orttirish, ijodkorlik, modellashtirish orqali ularning fikrlashi intensivlashadi. Muammoli ta‘lim qarama-qarshiliklar, kutilmagan vaziyatlarni o‘z ichiga olib, faqat yodlash uchun mos bo‘lgan tayyor dalil va xulosalarni emas, balki turli muammoni atroflicha o‘rganish, yechim topish uchun variantlar ishlab chiqish, o‘z reja va qarorlarini qabul qilish, baho berish, muhokama qilish, hamkorlik qilish orqali dalil hamda xulosalarga erishishni ta‘minlaydi.

Talabalarini pedagogik mustaqilligini rivojlantirish faoliyatiga tayyorlashda pedagogik faoliyat tushunchasi shunchaki harakat, rivojlanish, kuch emas, u ta‘lim oluvchining bilim olishga, yangi bilim va malakalarni egallashga bo‘lgan qiziqishi natijasi sifatida qaralishi muhim hisoblanadi. Talabalarda pedagogik mustaqillikni rivojlantirishda o‘quv mashg‘ulotlaridagi muvaffaqiyatli vaziyatlar katta ahamiyatga ega. Talabalar muvaffaqiyatga erishganda rag‘batlantirilsa va e‘tirof etilsa o‘zi uchun rivojlanish yo‘nalishini belgilab oladi, hissiy-emotsional jihatdan o‘ziga ishonchni yuksaltiradi, “ijobiy energiya resursi”ni ko‘paytiradi.

Pedagogik mustaqillikni rivojlantirish tizimli va uzluksiz tadqiq qilish pedagogik-psixologik zarurat hisoblanadi. Bu masala nafaqat pedagogika-psixologiyaga doir ilmiy tadqiqotchilar vazifasi sifatida, balki amaliyotchi-pedagoglarning ham kundalik vazifasi sifatida implementatsion vosita sifatida qaralishiga erishishni nazarda tutadi. “Talabalar dunyo”siga salmoqli, funktsional jihatdan katta va tez sur‘atda ta‘sir qilib borayotgan globallashtirish jarayonlari talabalarining pedagogik rivojlanishidagi turli pedagogik dissonanslarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa o‘qituvchi-pedagoglar

⁴ Шукина Г.И. Педагогические проблемы формирования познавательных интересов учащихся. – М.: Педагогика, 1988. – 145 с. (205).

⁵ Шукина Г.И. Усиление когнитивной активности в процессе образования. – М.: Образование, 2005. – 72 с. (245).

⁶ Федорова В.Н., Киришин Д.М. Межпредметные связи. – М.: Педагогика, 1989. – 233 с.

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

pedagogik faoliyati oldiga jamiyatning real talablari va global dunyoda talabalarning o‘zgarib borayotgan rivojlanish tendentsiyalariga moslanuvchan ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish vazifasini qo‘yadi. Bu esa talabalarning pedagogik rivojlanishi multidimensional (ko‘p o‘lchovli) omillarga bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Pedagogik mustaqillik fikrning kengligida, voqealarni har xil bog‘lanishlarda, munosabatlarda ko‘ra bilish, umumlashtirish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Talabalarning pedagogik mustaqilligini rivojlantirish jarayonida, muomalada, narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida, keyin esa o‘quv, mehnat, samarali faoliyatlar jarayonida amalga oshirib boriladi. Hozirgi zamon pedagogika fani bilimlar sistemasini o‘zlashtirib olish, ularni jamg‘arish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish, yangi bilimlar hosil qilish uchun zarur bo‘lgan bilish faoliyati usullarini egallab olish – pedagogik mustaqillikni rivojlanishning asosiy ko‘rsatkichlari deb hisoblaydi.

Talabalarning pedagogik mustaqilligini rivojlanishida har qanday topshiriqlarni tez bajarishi emas, balki qanday bajarishi muhim hisoblanadi. Sifat jihatdan o‘zgarishlar, birinchi navbatda fikrlash jarayonlaridagi siljishlar, o‘zgarishlarda namoyon bo‘ladi.

Axborot asrida bilim egallashning ko‘plab yangi turlari paydo bo‘ldi va bu jarayon tinimsiz davom etmoqda. Buning natijasida inson pedagogik mustaqilligini salmog‘i shunga mos ravishda ortib, bilimlarning eskirish jarayoni esa tezlashmoqda. Fan va texnika sohasidagi ma’lumotlar tezlikda yoyilishi, barcha uchun zudlik bilan o‘rganish imkoniyati rivojlanib bormoqda. O‘rganish – bu harakat reaksiyasidir va u orqali yangi pedagogik faoliyat shakllanadi. Talabalarda o‘rganish va uning samaradorligi yuqori bo‘ladi va bu tizimli amalga oshirilishi lozim.⁷

Talabaning pedagogik mustaqilligini rivojlanishida u yashovchi ijtimoiy muhitning ahamiyati katta. Hozirgi zamonda o‘zgarib borayotgan oilaviy tendentsiyalar, ota-onaning farzand tarbiyasiga bo‘lgan munosabatlardagi murakkabliklar o‘qituvchi-pedagog chetda qoldirmasligi lozim. O‘z navbatida talabalarning turli noformal ta’lim olish imkoniyatlari (oilada, turli to‘garaklar, ko‘ngilochar tomoshalar va boshqalar) talabalar o‘rtasidagi turli nomutanosibliklarni keltirib chiqadi. Bir guruhdagi talabalarning turli xil rivojlanish darajalari didaktik jihatdan talabadan diagnostik, metodik, baholash va loyihalash kompetentsiyalarini taqozo etadi.

Pedagogik amaliyotda pedagogik mustaqillikni rivojlantirishning turli yondashuvlar asosida amalga oshiriladi. Bularga misol tariqasida kompetentsiyaviy, individual, shaxsga yo‘naltirilgan, differentsiyallashgan yondashuvlarni keltirish mumkin.

Talabalarni pedagogik mustaqilligini faollashtiruvchi usullar quyidagicha:

- talabalarni o‘z fikrlarini asoslashga o‘rgatish;
- munozara va muhokama uchun qiziqarli vaziyatlarni keltirib chiqarish;
- o‘qituvchi tomonidan boshqa talabalarga savollar berish imkoniyatini yaratish;
- o‘zgalarning fikrlari, javoblariga munosabat bildirishni qo‘llab-quvvatlash;
- boshqa talabalarning fikrlarini xolis baholashga o‘rgatish;
- talabalarning o‘rganish strategiyasiga muvofiq individual va differentsiyallashgan yondashuv;
- ko‘p yechimli pedagogik vazifa (muammo)dan o‘quv mashg‘ulotlarida foydalanish;
- o‘z-o‘zining natijalarini baholash, shaxsiy pedagogik va amaliy faoliyati natijalarini baholash va tahlil qila olishlilik;
- pedagogik muammolarni bir nechta yechish usullarini ko‘rsatish.

Mashg‘ulotlarni rejalashtirishda muayyan usullar, shakllar va vositalarni tanlashda eng avvalo samarali natijaga yo‘naltirishni hisobga olish lozim. Shu bilan birga nafaqat talabalarning bilimlarni tushunishi, eslab qolishi, yoddan bilishi, takrorlashi, balki ular bilan ishlash, amaliyotda qo‘llay olish va doimiy rivojlantirib, kengaytirib borishini hisobga olish ko‘p jihatdan samarali hisoblanadi.

Talabalarda pedagogik mustaqillik rivojlanishining ko‘rsatkichlari quyidagilar iborat: tashabbuskorlik, energiya, qizg‘inlik, qamrov, kenglik, natijalar miqyosi, yaxlitlik, qiziqish, qiziquvchanlik (bilishga ijobiy munosabat), mustaqillik, o‘zini o‘zi boshqarish, faoliyatdan xabardorlik, iroda (maqsadga erishishda qat’iylik, ishni oxirigacha etkazish), qat’iyatlilik, maqsadga muvofiqlik, ijodkorlik.

Pedagogik mustaqillikni rivojlantirishda hissiy jihatdan quyidagi holatlarda o‘z aksini topadi:

- ular tomonidan “men buni o‘yladim”, “oldin buni qanday qilishni bilmasdim”, “unchalik qiyin emas ekan” degan fikrlar bildirilsa;
- turli fikrlardan orasidan o‘ziga ma’qul fikrga ustuvorlik belgilay olsa;


⁷ Bennett T.A., Szatmari P., Georgiades K. Language Impairment and Early Social Competence in Preschoolers with Autism Spectrum Disorders: A Comparison of DSM-5 Profiles. *J Autism Dev Disord* 44, 2014. – P. 2797-2808.

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

- voqea, hodisa yoki ma’lum tushunchani o‘z nuqtai nazaridan ifodalay olsa;
- o‘rgangan bilimlarni notanish sharoitlarda qo‘llay olsa;
- taklif va mulohazalar shakllantira olsa.

Pedagogik mustaqillikni rivojlantirish talabalarning ruhiy holati bilan uzviy bog‘liqlikka ega. O‘qituvchi tomonidan talabning pedagogik mustaqilligi rag‘batlantirilib, qo‘llab-quvvatlanib turilsa, olingan bilimlarni idrok etish, yodlash, saqlash, tushunish, takrorlash va talqin qilish kabi aqliy operatsiyalar samarali bajariladi. O‘qituvchi mashg‘ulotda faol ishtirok etmagan talabalarni interfaol ta’limga jalb qilish texnikasini hamda strategiyasini bilishi lozim. Agar biror talabada qo‘rquv, asabiylashish holati kuzatilsa, refleksiv suhbat qurish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Pedagogik mustaqillikka ega bo‘lish quyidagi qobiliyatlarni o‘z ichiga oladi:



1-rasm. Pedagogik mustaqillikka ega bo‘lish qobiliyatlari.

Muammoga asoslangan topshiriqlar talabalarni mustaqil hayotga yo‘naltirishda mehnat bozorining istiqboli bilan bog‘liq yaqin kelajakda (5-10 yillikda) kasb turlarining o‘zgarishi va ba’zi kasblarning eskirishi yoki umuman yo‘qolib ketishi, texnologiyalarning rivojlanishi bilan inson resurslariga bo‘lgan talabning o‘zgarishi, mutaxassisliklar bo‘yicha ham yangi trendlar va yangi kasbiy ko‘nikmalarga talablar ortib borayotganligi kabi muhim jihatlarni o‘z mazmuniga singdirishi lozim bo‘ladi. Fanlararo aloqadorlik asosida tuzulgan topshiriqlar talabalarda fanlarning amaliy ahamiyatini bilvosita tushunishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Talabalarning pedagogik mustaqilligini rivojlantirishda darslarni zamonaviy yondashuvlar, vositalar hamda metodlarni qo‘llash, yangi ma’lumotni o‘zlashtirish jarayonida eshitib, ko‘rib, hayotga qo‘llab o‘rganish muhim ahamiyatga ega. So‘nggi vaqtlarda ta’lim sohasidagi islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarida malakali kadrlar va yetuk mutaxassislariga bo‘lgan talabni yanada yuksaltirmoqda. Bu esa talabalarning darslarga qiziqishi hamda motivatsiyasini oshirish va o‘qituvchilarning har tomonlama ta’lim-tarbiyaga e’tiborini kuchaytirishni talab etadi.

Umuman olganda, talabalar pedagogik mustaqilligini rivojlantirish muammosining dolzarbligi shundaki, ularning tashqi dunyo bilan o‘zaro aloqasi faqat ularning faoliyati va faolligi tufayli amalga oshadi, bu esa o‘z navbatida mustaqillik va tashabbusni shakllantirishga yordam beradi. Pedagogik mustaqillik talabning faolligini, uning bilimga bo‘lgan ishtiyoqini, noma’lumdan ma’lumni aniqlashga bo‘lgan harakatini ta’minlaydi. Ilmiy adabiyotlarda “pedagogik mustaqillik” tushunchasi turli talqinlarda ifoda etiladi. Pedagogiklik talabning mustaqil faoliyatga intilishini anglatadi, ijtimoiy tajribani, insoniyat tomonidan to‘plangan faoliyat usullarini o‘zlashtirishni o‘z ichiga oladi.

Adabiyotlar:

1. Artikova, m. B. (2019). Experience in developing entrepreneurship skills in foreign countries. Scientific bulletin of namangan state university, 1(7), 250-255.
2. Можар е.н. учебно-познавательная активность школьников как воспитание учащейся и студенческой молодёжи (к 85-летию со дня рождения): материалы респ. Науч. Практ. Конф. (гомель, 23-24 июня 2005г). В 2 ч. Ч.1 / ред.кол.: ф.в.кадол, в.п.горленко и др.; министерство обр. Рб, ггу им. Ф.скарини. - гомель: ггу им. Ф.скарини, 2005. – с. 165-168.
3. Bennett t.a., szatmari p., georgiades k. Language impairment and early social competence in preschoolers with autism spectrum disorders: a comparison of dsm-5 profiles. J autism dev disord 44, 2014. – p. 2797-2808.
4. Федерова в.н., кирюшин д.м. межпредметные связи. – м.: педагогика, 1989. – 233 с.
5. Шукина г.и. педагогические проблемы формирования познавательных интересов учащихся. – м.: педагогика, 1988. – 145 с. (205).
6. Шукина г.и. усиление когнитивной активности в процессе образования. – м.:

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral
образование, 2005. – 72 с. (245).